

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KIBERXAVFSIZLIK SIYOSATI

**Muxtoriddinov Muhammadyusuf Temirxon o‘g‘li**

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, 705-21 guruh magistri

E-mail: [muhammadyusuf0066@gmail.com](mailto:muhammadyusuf0066@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

O‘zbekiston Respublikasi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni

**Kalit so‘zlar:** Kiberxavfsizlik siyosati, kibermakon, axborot xavfsizligi, internet

### CYBER SECURITY POLICY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

#### ABSTRACT

Law of the Republic of Uzbekistan “On Cyber Security”.

**Key words:** Cyber security policy, cyber space, information security, internet

Bugungi kunning hamda kelajakning dolzarb siyosiy jarayonidan biri bo‘lib turgan axborot xavfsizligining eng katta bo‘limidan biri bo‘lgan kiberxavfsizlik sohasi O‘zbekiston Respublikasida ham kundan kunga o‘zining siyosiy o‘rnini topib kelmoqda. Bundan tashqari iqtisodiy, mintaqaviy, turli xalqaro tizimlar va ichki jarayonlarda kibermakon bilan birgalikda sodir bo‘layotgan yangi turdagi voqea va hodisalarni tartibga solishda ham bir qancha o‘zgartirish va muvofiqlashtirish ishlari olib borilmoqda. Jumladan 2022-yil 25-fevralda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan hamda Senat tomonidan 2022-yil 17-martda ma’qullangan O‘zbekiston Respublikasi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonuni ham aynan shular jumlasidan.

O‘zbekiston Respublikasi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonunida **axborotlashtirish obyekti, kiberjinoyatchilik, kibermakon, kibertahdid,**

**kiberxavfsizlik, kiberxavfsizlik hodisasi, kiberxavfsizlik obyekti, kiberxavfsizlik subyekti, kiberhimoya, kiberhujum, muhim axborot infratuzilmasi, muhim axborot infratuzilmasi obyektlari va muhim axborot infratuzilmasi subyektlari kabi yangi kirib kelgan so‘zlarning aniq tariflari** belgilab berilgan.

Ushbu 15.04.2022 yildagi O‘RQ-764-sonli qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kirishi belgilab qo‘yilgan va joriy 2022-yil 17-iyul sanasidan amalda malakalana boshladi, aynan ushbu va shukabi kibervavfsizlik sohasidagi davlat siyosati bugungi kunning kibermakondagi kiber jarayonlarni to‘g‘ri tartibga solishning muhim yechimi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Kiberxavfsizlik sohasidagi yagona davlat siyosatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti belgilaydi, hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati kiberxavfsizlik sohasidagi vakolatli davlat organi etib belgilangan.

Qonunning 2-moddasida keltirilganidek, Kiberxavfsizlik to‘g‘risidagi qonunchilik quyidagilarga asoslangandir:

Kiberxavfsizlik to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Telekommunikatsiya tarmoqlari va aloqa kanallaridagi tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining kiberxavfsizligini ta’minlash alohida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Ushbu qonun orqali kiberxavfsizlik sohasidagi barcha munosabatlarni tartibga solish belgilab berilgan, ya’ni hozirda barcha saohada vaziyat taqazosi hamda zamon talabi bilan shart bo‘lib kelayotgan kiberhimoya jarayonidir. **Kiberhimoya hodisasini ham aniq qanday muhit ekanligi qonunda quyidagicha bayon qilingan** - kiberxavfsizlik hodisalarining oldini olishga, kiberhujumlarni aniqlashga va ulardan himoya qilishga, kiberhujumlarning oqibatlarini bartaraf etishga,

telekommunikatsiya tarmoqlari, axborot tizimlari hamda resurslari faoliyatining barqarorligini va ishonchliligini tiklashga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy, muhandislik-texnik chora-tadbirlar, shuningdek ma'lumotlarni kriptografik va texnik jihatdan himoya qilish chora-tadbirlari majmui.

Ushbu qonun 8 ta bob hamda 40 ta moddadan iborat bo'lib, quyidagi boblarni o'z ichiga oladi:

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Kiberxavfsizlik sohasini davlat tomonidan tartibga solish

3-bob. Davlat organlari va tashkilotlarining kiberxavfsizlikni ta'minlash borasidagi huquq va majburiyatlari. Ma'lumotlarning zaxira nusxalarini ko'chirish

4-bob. Kiberxavfsizlikni ta'minlash

5-bob. Kiberxavfsizlik hodisalari

6-bob. Muhim axborot infratuzilmasi obyektlari

7-bob. Kiberxavfsizlik sohasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

Harqanday jarayon ham demokratik davlat siyosatida hukumat tomonidan tartibga solingan hamda amalda ustuvor bo'lgan qonunchilik asosida yuritilishi kerak, bunda ushbu qonun zamon talabiga to'la moslashuvchanligi muhim omillardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risidagi Qonuni ham aynan shunday zamon talablariga va xalqaro normalarga to'la mosligi bilan dolzarb bo'lib kelgan Kiberxavfsizlik siyosatini tartibga solishda yangi muhim qadam bo'ldi. Sababi hozirgi kunda har qanday shaxs, barcha sohlardagi ish jarayoni qurilmalari, axborotlar almashuvi bevosita kibermakon bilan bog'liq bo'lib bormoqda. Bunday kibermakondagi hodisalarni, vaziyatlarni tartibga solishda O'RQ-764 davlat siyosatini amalga oshirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-764-son